XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-yanvar VII-3-15-5-79-K/25 Navoiy shahar

Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining 2024-yil 29-iyul VI-80-78-5-79-K/24-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli "Yo‘l xaritasi" hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlar palatasi Navoiy shahar filialining 2024-yil 22-noyabrdagi 01-15/1777-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining 2024-yil 29-iyul VI-80-78-5-79-K/24 sonli qarorining chegara tavsifi 1-nuqtadan 18-nuqtagacha bo’lgan tavsifi 1-ilovaga muvofiq, 2-ilovada ko’rsatilgan sxematik xaritasi 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari O‘. Haqberdiyev hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A. Mirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ERGASHEV DILMUROD BEKMURADOVICH

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-yanvardagi
VII-3-15-5-79-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Navoiy shahrining chegara
TAVSIFI

Zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°07'39,036", sharqiy uzoqlik koordinatalari 65°25'36,136")*.

1-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning ‘ suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 941 metr masofani, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 477 metr masofani, so‘ng janubiy -janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 313 metr masofani, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofani, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2061 metr masofada R-64 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda to`g`ri chiziq bo`ylab 1133 metr masofani o`tib avtomobil yo`lining shimoliy tomonida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'15,804", sharqiy uzoqlik 65°24'12,810")*

2-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g`arbiy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo`lini janubiy yo`nalishda 28 metr masofada kesib o`tib, so`ng ichki avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1254 metr masofani o‘tib, so‘ng ichki avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 491 metr masofani o‘tib, so‘ngra ichki avtomobil yo‘lining shimol tomoni hamda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 693 metr masofani o‘tib, so‘ng ariq va temir-beton ko‘prikni kesib o‘tib, ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 64 metr masofada, ariqning bo‘yida, ichki avtomobil yo‘lining shimolida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°04'29,887", sharqiy uzoqlik 65°25'19,882")*

3-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda to`g`ri chiziq bo`ylab 253 metr masofada avtomobil yo`lining shimoliy qismiga chiqib, keyin avtomobil yo`lining shimoliy tomoni bo`ylab g`arbiy yo`nalishda 58 metr masofani o`tib, so`ng avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ichki avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 407 metr masofani o‘tib, so‘ngra to`g`ri chiziq bo`ylab devor orqali g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib, temir yo‘l shimolida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'08,560", sharqiy uzoqlik 65°25'13,290")*

4-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 775 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li sharqida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'20,305", sharqiy uzoqlik 65°24'44,512")*

5-nuqtadan chegara chizig‘i issiqxona devori bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda159 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chiziq orqali ichki avtomobil yo‘lini g‘arbiy yo‘nalishda 25 metr masofada kesib o‘tib, so‘ng Oqtosh qabristoni devori bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 491 metr masofani o‘tib, so‘ngra devor orqali g‘arbiy yo‘nalishda 1180 metr masofani o‘tib, keyin devor bo‘ylab shimoliy

yo‘nalishda 81 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chegara chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 32 metr masofani o‘tib, ichki avtomobil yo‘li janubida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'07,634", sharqiy uzoqlik 65°23'56,324")*

6-nuqtadan chegara chizig‘i ichki avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan xolda 3008 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li sharqida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'15,225", sharqiy uzoqlik 65°21'50,499")*

7-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 418 metr masofani o‘tib, keyin temir yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 6354 masofani o‘tib, temir yo‘li janubida, piyodalar o‘tish yo‘lining g‘arb tomonida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'48,997", sharqiy uzoqlik 65°17'27,490")*

8-nuqtadan chegara chizig‘i piyodalar o‘tish yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 30 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, keyin temir yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1914 metr masofani o‘tib, temir yo‘l kesishmasida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'23,029", sharqiy uzoqlik 65°18'28,729")*

9-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning janub tomoni bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 2324 metr masofani, keyin shimoliy-g`arbiy yo`nalishda 2855 metr masofani o‘tib, temir yo‘lning janubida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°06'33,866", sharqiy uzoqlik 65°15'22,338")*

10-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lni kesib o‘tib quruq chegara chizig‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 97 metr masofani o‘tib, keyin suv tindirish inshooti devori orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1871 metr masofani o‘tib, devor shimolida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'58,160", sharqiy uzoqlik 65°16'39,020")*

11-nuqtadan chegara chizig‘i suv tindirish inshooti devori orqali umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2454 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tgan holda dala tuproq yo‘li sharqida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'05,433", sharqiy uzoqlik 65°18'20,691")*

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining sharq tomonida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'05,386", sharqiy uzoqlik 65°18'32,337")*

13-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 38 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 279 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq ariqning o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 38 metr masofani o‘tib, so‘ngra quruq ariqning o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 16 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i bo‘ylab 13 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq ariqning o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 801 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda quruq chiziq orqali 589 metr masofani o`tib, quruq ariqning sharqiy tomonida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°06'31,064", sharqiy uzoqlik 65°19'29,933")*

14-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqning sharqiy tomoni bo`ylab shimoliy yo`nalishda 1263 metr masofada avtomobil yo`lining janubiy tomoniga chiqib, keyin

to`g`ri chiziq bo`ylab sharqiy yo`nalishda 41 metr masofani o`tib, so`ng shimoliy yo`nalishda avtomobil yo`lining sharqiy tomoni bilan 637 metr masofani o`tib avtomobil yo`lining sharqiy tomonida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'32,008", sharqiy uzoqlik 65°19'18,516")*

15-nuqtadan chegara chizig‘i issiqxona devori bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 173 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chiziq bo`ylab sharqiy yo‘nalishda 155 metr masofada kanalni kesib o‘tib, so‘ng kanalning janubiy tomoni bo`ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo`nalishda 906 metr masofani o`tib, so`ngra, keyin issiqxona devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 326 metr masofani o‘tib, so‘ng issiqxona va omborxona devorlari oirqali umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 556 metr masofani o‘tib, so‘ngra ichki avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 192 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 776 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 125 metr masofani o‘tib, so‘ngra kanalni kesib o‘tib, ichki avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 293 metr masofani o‘tib, keyin ichki avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li g‘arbida, temir-beton ko‘prikning janubiy-g‘arbida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'20,735", sharqiy uzoqlik 65°21'15,463")*

16-nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2411 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1814 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining shimoliy tomonida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'49,481", sharqiy uzoqlik 65°24'05,296")*

17-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi ong‘ tomoni bilan 331 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi ong‘ tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 915 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 21 metr masofani o‘tib, so‘ngra quruq chegara chiziq bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 54 metr masofani o‘tib, keyin devorning janubiy-sharqiy tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 334 metr masofani o‘tib, zovurning janubida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'42.217", sharqiy uzoqlik 65°24'48.927")*

18-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 44 metr masofani o‘tib, keyin avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchasi chegara devorining g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 66 metr masofani, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ngra umumiy shimoliy yo`nalishda zovurning sharqiy tomoni bo`ylab 34 metr masofani o`tib, keyin umumiy sharqiy yo`nalishda zovurning janubiy tomoni bo`ylab 935 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr masofani o‘tib, so‘ng gaz quviri orqali sharqiy yo‘nalishda 80 metr masofani o‘tib zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'39,036", sharqiy uzoqlik 65°25'36,136")*

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-yanvardagi
VII-3-15-5-79-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyat Navoiy shaharining chegara sxematik xaritasi

